

UDK: 811.512.133:811.581

O‘ZBEK TILIDAGI -GAN AFFIKSINING GRAMMATIK MA’NOLARI VA ULARNING XITOIY TILIDA IFODALANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-34-37>

Shamsiddinova Z.,

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston, zebaxon_shams@mail.ru*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada -gan affiksining o‘zbek tilidagi grammatik ma’nolari — holatni saqlash, subyektivlik, o‘tgan zamon (uzoq va yaqin) va taxminiy ma’nolar — xitoy tilida ifodalanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ikkala tilda ham zamon va aspekt tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *-gan affiksi, holatni saqlash, subyektivlik, o‘tgan zamon, 着 (zhe), 了 (le), 过 (guò), qiyosiy tahlil*

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ АФФИКСА -ГАН В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Шамсиддинова З.,

*преподаватель,
Университет мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан, zeboxon_shams@mail.ru*

Аннотация. *В данной статье грамматические значения аффикса -ган в узбекском языке — сохранение состояния, субъективность, значения прошедшего времени (далекого и недавнего) и значения предположения — анализируются с точки зрения их выражения средствами китайского языка. Результаты исследования освещают специфические особенности системы времени и вида в обоих языках.*

Ключевые слова: *аффикс -ган, сохранение состояния, субъективность, прошедшее время, 着 (zhe), 了 (le), 过 (guò), сопоставительный анализ*

GRAMMATICAL MEANINGS OF THE -GAN AFFIX IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR EXPRESSION IN THE CHINESE LANGUAGE

Shamsiddinova Z.,

Lecturer,

University of World Economy and Diplomacy,
Tashkent, Uzbekistan, zeboxon_shams@mail.ru

Abstract. This article comparatively analyzes the grammatical meanings expressed by the -gan affix in the Uzbek language — preservation of state, subjectivity, remote and recent past tense, and inferential meanings — in relation to the grammatical devices of the Chinese language. The research results highlight the distinctive features of the tense-aspect systems in both languages.

Key words: -gan affix, preservation of state, subjectivity, past tense, 着 (zhe), 了 (le), 过 (guò), comparative analysis

KIRISH

O‘zbek tilida fe’l zamon shakllari orqali nafaqat ish-harakatning bajarilgan vaqti, balki uning bajarilish usuli, natijasi va nutq egasining subyektiv munosabati ham ifodalanadi. Shu jihatdan -gan affiksi o‘zbek tilining eng ko‘p ma’noli va funksional birliklaridan biri hisoblanadi. U ish-harakatning o‘tmishda sodir bo‘lganligini bildirish bilan birga, holatning saqlanganligi, subyektiv baho, gumon va taxmin kabi murakkab grammatik ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Mazkur maqolada -gan affiksining ushbu grammatik xususiyatlari xitoy tilidagi 着 (zhe), 了 (le) va 过 (guò) suffikslari bilan qiyoslab tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Holatning saqlanganlik ma’nosi. O‘zbek tilida -gan affiksi bilan yasalgan ayrim fe’l shakllari ish-harakatning bajarilganligini emas, balki uning natijasida yuzaga kelgan holatning hozirgi paytda ham saqlanib qolganligini bildiradi. Bunda harakat fon planga o‘tib, natijaviy holat markaziy ma’noga aylanadi. Masalan:

高密东北乡家家户户院子里都堆着地瓜，家家户户的墙壁上都拉了铁丝，铁丝上挂满了切成片的地瓜。(莫言。“蛙”。Moyan. “Qurbaqa”)

Gāomì dōngběi xiāng jiājiāhùhù yuànzǐ lǐ dōu duī zhe dìguā, jiājiāhùhù de qiángbì shàng dū lā qīle tiěsī, tiěsī shàng guà mǎnle qiè chéng piàn dì dìguā.

Shirin kartoshkalar Shimoli-Sharqiy Gaomi shaharchasidagi har bir xonadonning hovlisida to‘plangan va har bir xonadonning devorlariga temir simlar tortilgan, simlarga shirin kartoshka bo‘laklari osilgan.

Mo Yanning “Qurbaqa” asaridan olingan yuqoridagi jumlada shirin kartoshkaning ilgari to‘planganligi emas, balki hozir ham hovlilarda mavjudligi tasvirlanmoqda. Xitoy tilida ushbu grammatik ma’no fe’lga birikib keluvchi 着 (zhe) suffiksi orqali ifodalanmoqda. 着 (zhe) suffiksi harakatning davomiy holatini yoki bajarilgan ish-harakat natijasida yuzaga kelgan holatning saqlanib turganligini ko‘rsatadi. Shu sababli u o‘zbek tilidagi -gan affiksining mazkur funksional ma’nosiga tipologik jihatdan mos keladi.

Subyektivlik ma’nosi. O‘zbek tilida -gan affiksi ish-harakatning bajarilganligi haqida so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashda ham faol qo‘llaniladi. A.N. Kononov ta’kidlaganidek, -gan affiksli fe’l shakllari ko‘pincha ish-harakatning bevosita kuzatilmaganligini, balki bilvosita manbalar orqali ma’lum bo‘lganligini anglatadi. Bunday holatlarda ish-harakatning o‘zi emas, uning natijasi yoki mavjudligi muhim hisoblanadi. Xitoy tilida mazkur subyektivlik ma’nosi asosan 过 (guò) va 了 (le) suffikslari orqali ifodalanadi. Masalan:

Bular Maskovga borgan bo‘lsa, manam borganman. (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

如果他们去过莫斯科上过战场那我也去了. (欧特克尔·哈希莫夫. “生活琐事”)

Rúguò tāmen qùguò mòsīkē shàngguò zhànchǎng nà wǒ yě qùle.

Yuqorida berilgan ergash gapda 过 (guò) suffiksining qo‘llanishi ish-harakat haqida bilvosita xabardorlikni bildirsa, bosh gapda 了 (le) suffiksi nutq egasining ish-harakatni bevosita amalga oshirganligini ko‘rsatadi. Bu holat o‘zbek tilidagi -gan affiksining subyektivlik ma’nosiga to‘la mos keladi.

Yaqin o‘tgan zamon ma’nosi. -gan affiksi o‘zbek tilida faqat uzoq o‘tgan zamonni emas, balki nutq vaqtidan bevosita oldin sodir bo‘lgan ish-harakatni ham ifodalashi mumkin. Bunday holatda zamon ma’nosi ko‘pincha payt hollari orqali aniqlashtiriladi.

Xitoy tilida esa yaqin o‘tgan zamon ma’nosi asosan 了 (le) suffiksi yordamida yuzaga chiqadi. Ayrim hollarda ish-harakatning tugallanganligini kuchaytirish maqsadida 过 (guò) va 了 (le) suffikslari birgalikda qo‘llanadi. Masalan:

Uniyam aytgansiz-ku. (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

这个故事你已经讲过了啊 (欧特克尔·哈希莫夫. “生活琐事”)

Zhège gùshì nǐ yǐjīng jiǎngguòle a?

Berilgan jumlada 已经 (yǐjīng) leksik ko‘rsatkichi zamon ma’nosini yanada kuchaytirmoqda.

Gumon va taxmin ma’nosi. -gan sifatdoshi -dir yuklamasi bilan birikib kelganda, ish-harakatning o‘tmishda sodir bo‘lganligi taxmin yoki gumon sifatida ifodalanadi. Bu holatda subyektivlik yanada kuchayadi. Masalan:

Bilmadim, ehtimol o‘sha oq, oydin kechalarda onam ilk bor qo‘limga qalam tutqazgandir. Ehtimol osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

可能是因为在夏天明亮的夜晚，妈妈教我写字... 也许很多这样的星星合在一起就会变成太阳。(欧特克尔·哈希莫夫。“生活琐事”)

Kěnéng shì yīnwèi zài nà xiàtiān míngliàng de yèwǎn, māmā jiào wǒ xiězi... Yěxǔ hěnduō zhèyàng de xīngxīng hé zài yīqǐ jiù huì biàn chéng tàiyáng.

Xitoy tilida mazkur ma’no 可能 (kěnéng), 也许 (yěxǔ) kabi modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. E’tiborlisi shundaki, bu gaplarda fe’l shakllari o‘tgan zamon yasovchi suffikslarsiz ham o‘tmishga oid taxmini ma’noni bera oladi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi -gan affiksi grammatik jihatdan ko‘p funksiyali birlik bo‘lib, u holatning saqlanganligi, subyektivlik, yaqin va uzoq o‘tgan zamon hamda gumon-taxmin kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xitoy tilida esa ushbu ma’nolar 着 (zhe), 了 (le), 过 (guò) suffikslari hamda leksik-modal vositalar orqali yuzaga chiqariladi. Chog‘ishtirma tahlil ikki til zamon-aspekt tizimining tipologik farqlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского языка.— М.: Наука, 1960.
2. 莫言. 蛙. 北京: 人民文学出版社, 2009.
3. 欧特克尔·哈希莫夫. 生活琐事. 北京: 民族出版社, 2015.
4. Shamsiddinova Z.F. Xitoy madaniyatida vaqt modeli tushunchasining tilda aks etish xususiyatlari. International scientific conference “Scientific advances and innovative approaches”. Vol-1 Issue- 4. Tokyo, Japan. 2025.
5. Shamsiddinova, Z. (2023). PECULIARITIES OF EXPRESSING SYNTAGMATIC CONSTRUCTIONS WITH THE HELP OF NOUNS, PRONOUNS AND VERBS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(01), 42-46.
6. Shamsiddinova, Z. F. (2024). HOZIRGI XITOY TILIDA TEMPORATIVLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(25), 83-89.